

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI



"KLASSIQLAYMAN"  
O'qitish bo'yicha prorektor  
A. Esanov  
2024-yil

**ONA TILI SEMANTIKASI**

**FANI BO'YICHA SILLABUS**

*1-kurs magistratura bo'limi uchun*

**Bilim sohasi:** 100 000 – Ta'lim  
**Ta'lim sohasi:** 110 000 – Ta'lim  
**Mutaxassislik kodi:** 70110501 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)

**Modul/FAN SILLABUSI**  
**Magistratura bo'limi**  
**70110501-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va**  
**metodikasi (boshlang'ich ta'lim)**

Fan nomi:	<i>Ona tili semantikasi</i>
Fan turi:	tanlov
Fan kodi:	O'NSTI205
Yil:	2024-2025
Semestr:	2
Ta'lim shakli:	Kunduzgi
Mashg'ulotlar shakli va semestrga ajratilgan soatlar:	150
Ma'ruza	30
Amaliy mashg'ulotlar	-
Laboratoriya mashg'ulotlari	-
Seminar	30
Mustaqil ta'lim	90
Kredit miqdori:	5
Baholash shakli:	Imtihon
Fan tili:	O'zbek

**Fan maqsadi (FM)**

**I. Fanning mazmuni.**

FM 1

**Fanni o'qitishdan maqsad** - Ushbu fan magistratura bo'limi talabalari uchun talaba tanlovi fani sifatida olingan bo'lib, bunda magistratura talabalarining ona tili fani bo'yicha bilim saviyasini belgilash, "Ona tili" va "Ona tili o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi" fanlari bo'yicha olgan nazariy bilimlarini yanada takomillashtirishdan iboratdir. Ushbu fan ijtimoiy-pedagogik fan bo'lib, magistratura ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan. Ona tili semantikasi fani o'quvchi shaxsida fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchida til qurilishiga oid o'zlashtiriladigan amaliy bilimlarni, shuningdek o'zbek tilining lug'at tarkibi (leksikasi), frazeologik tizimi jahon va o'zbek tilshunosligining so'nggi yillarda erishgan yutuqlarini, lug'atchilik (leksikografiya) masalalari o'rganish. Bunda o'zbek leksikografik tizimidagi filologik, ensiklopedik va ideografik lug'atlar va ularning konkret turlari haqidagi ma'lumotlarni o'rganish, o'zbek tili qurilishida muhim va asosiy sanaluvchi lug'at boyligi o'rganish nazarda tutiladi. Bo'lajak magistratlarning to'la savodxonligini

yanada takomillashtirish, ularning amaliy jihatdan yetuk qilib tayyorlash maqsadida tilshunoslikning leksikologiya bo'limi, xususan, o'zbek tili leksikasidagi so'zlarning semantikasi, semasiologiyasi chuqur o'rganiladi, shuningdek, talabalarning lugat sostavidagi so'zlarning ma'nolarini o'rganish jarayoniga va og'zaki nutqini o'stirishga ayniqsa seminar mashg'ulotlariga keng o'rin beriladi.

**Fanning vazifasi** - talabalarda ona tilining leksikologiya bo'limi uchun umumiy bo'lgan nazariyalari, qonunlari, qoidalari to'g'risida birlamchi ilmiy qarashni shakllantirish, olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish, o'zlashtirgan nazariy va amaliy bilimlarini eng samarali metod va ish turlaridan foydalangan holda ularni o'quvchilarga o'rgatish ko'nikma va malakalarini hosil qilishdan iborat. Shuningdek, kursni o'qishda talabalarga o'zbek tilining lug'at tarkibi (leksikasi), frazeologik tizimi jahon va o'zbek tilshunosligining so'nggi yillarda erishgan yutuqlari, ilmiy lug'atchilik (leksikografiya) masalalari, o'zbek leksikografik tizimidagi filologik, ensiklopedik va ideografik lug'atlar va ularning konkret turlarini o'rganish vazifalari bajariladi.

### Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlangich bilimlar

- |    |   |
|----|---|
| 1. | Ona tili o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi(OTO'SUO'M105) |
| 2. | Ona tili praktikumi(OTP204)   |

### Ta'lim natijalari (TN)

#### *Bilimlar jihatidan:*

TN 1 Ushbu fanni muvaffaqiyatli tugatib, magistrlar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

TN 2 Ona tilining leksik tizimi haqida ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, so'z va leksema, so'z va uning ma'nolari; semalar, sememalar, monosemiya, polisemiya haqida bilishi kerak;

TN3 Ushbu fanni muvaffaqiyatli tugatib, magistrlar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

#### *Ko'nikma jihatidan:*

TN4 Ona tilining lug'at tizimi haqida ma'lumot ega bo'ladi, shuningdek, so'zning to'g'ri va ko'chma ma'nolari, ma'no ko'chish yo'llari, metafora, metonimiya, vazifadoshlik, bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar, so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini biladi;

TN5 lug'aviy-mazmuniy makroqurilmalar, o'zlashma qatlam, iste'mol doirasi chegaralanmagan leksika, iste'mol doirasi chegaralangan leksika, dialektal leksika va uning tizimi, ilmiy leksika va uning tizimi, jargon, argo va ularning tizimi, zamonaviyligiga ko'ra o'zbek tili leksikasi, etimologiya, frazeologiya, leksikografiya haqida biladi;

TN6	so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, so'z ma'nolari va ularning o'zgarishini o'rganadi. Leksikaning sistemalilik xarakteri haqida, paradigmatika (paradigmatik munosabatlar), sintagmatika (sintagmatik munosabatlar), iyerarxiyalik munosabat, lug'aviy semasiologiya, so'z va uning ma'nosi, so'z ma'nosining semiotikaga aloqasi, lug'aviy ma'no va uning xususiyatlari, lug'aviy ma'no va tushuncha munosabati, lug'aviy ma'no va lug'aviy vazifa munosabati, lug'aviy ma'noning ikki jabhasi haqida biladi.
-----	--

### Fan mazmuni

#### Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)

#### II semestr

M1	Ona tilining leksikologiya bo'limi haqida ma'lumot. Leksikologiyaning o'rganish obyekti, so'zning leksik ma'nosi, leksikologiyaning o'rganish sohalari.
M2	So'z – tilning asosiy, leksikaning markaziy birligi sifatida. Leksema va so'z.
M3	Leksik ma'noning semantik tarkibi. Sema tushunchasi haqida. Semalarning tiplari.
M4	Leksemalarda ko'p ma'nolilik. Leksik ma'noning taraqqiyot yo'llari. Leksik ma'no taraqqiyotining natijalari. Leksik ma'nolarning turlari. Leksik ma'noning lug'aviy (leksik) konteksti.
M5	Leksikaning sistemalilik xarakteri haqida. Paradigmatika (paradigmatik munosabatlar, sintagmatika, sintagmatik munosabatlar, Iyerarxiyalik munosabatlar.
M6	Lug'aviy semasiologiya. So'z va uning ma'nosi, so'z ma'nosining semiotikaga aloqasi, lug'aviy ma'no va uning xususiyatlari, lug'aviy ma'no va tushuncha munosabati, lug'aviy ma'no va lug'aviy vazifa munosabati, lug'aviy ma'noning ikki jabhasi. Onomastika.
M7	Lug'aviy sathni tizim (sistema) tarzida xarakterlovchi lug'aviy mazmuniy qurilmalar. Lug'aviy ko'p ma'nolilik va uning o'ziga xos mikroqurilma ekanligi. Lug'aviy ko'p ma'nolilikka yo'l ochuvchi lisoniy va nolisoniy omillar.
M8	So'z ma'nosining bo'yog'i. Lug'aviy-mazmuniy medioqurilmalar. Shakldosh so'zlar guruhi (lug'aviy omonimiya). Ohangdosh so'zlar guruhi. Ma'nodosh so'zlar guruhi. Zid ma'noli so'zlar guruhi. Antonimlar. Enantiosemiya. Zid ma'noli bo'lmagan leksik birliklar va ularning lug'aviy mazmuniy medioqurilmalari. Sinonimlar. Dubletlar. Tabu. Evfemizmlar. Graduonimlar.
M9	Leksik birliklarning denotativ asosda farq qiluvchi lug'aviy mazmuniy medioqurilmalari. Giponimlar. Ekvonimlar. Partonimlar. Funkcionimlar.

	Lug'aviy-mazmuniy makroqurilmalar. Lug'aviy-mavzuiy guruh. Lug'aviy-mazmuniy maydon. O'zbek tilining lug'aviy tarkibi (Leksikasi).
M10	O'zbek tili leksikasining shakllanish va rivojlanish manbalari. O'z qatlam. So'z o'zlashtirish. O'zlashma qatlam. Tojik-fors lug'aviy o'zlashmalari. Arab lug'aviy o'zlashmalari. Rus va sovet-baynalmilal lug'aviy o'zlashmalari.
M11	Iste'mol doirasiga ko'ra o'zbek tili leksikasi. Iste'mol doirasi chegaralanmagan leksika. Iste'mol doirasi chegaralangan leksika. Dialektal leksika va uning tizimi. ilmiy leksika va uning tizimi. Jargon, argo va ularning tizimi.
M12	Zamonaviyligiga ko'ra o'zbek tili leksikasi. Zamonaviy qatlam.. Zamondosh qatlam. Neologizmlar. Arxaizmlar. Istorizmlar.
M13	Lug'aviy birliklarning nutq uslublariga ko'ra turlari. Adabiy nutqqa xoslangan lug'aviy birliklar. So'zlashuv nutqiga xoslangan lug'aviy birliklar. Lug'aviy birliklarning emotsional-ekspressivlikka ko'ra guruhlanishi. Etimologiya.
M14	Frazeologiya. Frazeologiya haqida umumiy ma'lumot. Frazeologik semasiologiya. Frazemalarda bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik.
M15	Leksikografiya haqida umumiy ma'lumot. Lug'atlarning turlari va ularning tavsifi. Lingvistik (filologik) lug'at va uning turlari. Umumiy o'z til lug'atlari. Maxsus o'z til lug'atlari. Ensiklopedik lug'atlar. Ideografik (mavzuiy) lug'atlar.

**Mashg'ulotlar shakli: Seminar mashg'uloti (S)**

II semestr	
S1	Leksikologiya va uning sohalari.
S2	So'z – tilning asosiy, leksikaning markaziy birligi sifatida.
S3	Leksikaning sistemalilik xarakteri haqida
S4	Leksemalarda ko'p ma'nolilik.
S5	Leksikaning sistemalilik xarakteri haqida.
S6	Lug'aviy semasiologiya.
S7	Lug'aviy mazmuniy qurilmalar.
S8	So'z ma'nosining bo'yog'i.
S9	Leksik birliklarning denotativ asosda farq qiluvchi lug'aviy mazmuniy medioqurilmalari.
S10	O'zbek tili leksikasining shakllanish va rivojlanish manbalari.
S11	Iste'mol doirasiga ko'ra o'zbek tili leksikasi.
S12	Zamonaviyligiga ko'ra o'zbek tili leksikasi.
S13	Lug'aviy birliklarning nutq uslublariga ko'ra turlari. Adabiy nutqqa xoslangan lug'aviy birliklar.
S14	Frazeologik birliklar.
S15	Leksikologiya va uning sohalari.

### Mustaqil ta'lim (MT)

#### IV semestr

1.	Mavzular bo'yicha referat yozish.	20 v.rah.
2.	Matnlar asosida leksik tahlil qoliplarini tuzish.	20 v.rah.
3.	Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlarni tahlil qilish.	15 v.rah.
4.	So'zlarning turli semalarini tahlil qilish.	20 v.rah.
5.	Matnni leksik-semantik tahlil qilish.	15 v.rah.

#### Asosiy adabiyotlar:

1.	Mirtojiyev M.M. O'zbek tili semasiologiyasi, -T.: "MUMTOZ SO'Z" 2010.
2.	Jamolxonov H.A. «Hozirgi o'zbek adabiy tili». Darslik.T.: "TALQIN" 2005.
3.	Berdialiyev A. Ermatov I. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik.T.: «TURON-IQBOL» 2021.

#### Qo'shimcha adabiyotlar:

1.	Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
2.	Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.
3.	Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
4.	Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi.-Toshkent, 2021. -458 b.
5.	Rahmatullayev Sh. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" T.: "Universitet".2006.
6.	Sayfullayeva R.R. va boshqalar. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" T.:2010.
7.	Неъматов Х, Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари.

**Talabanning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:**

**a) 5 baho (90-100 ball) olish uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:**

- fanning mohiyati va mazmunini to'liq yoritma olsa;
- fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'ymas;
- fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa;
- fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa;
- berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa;
- konspektga puxta tayyorlangan bo'lsa;
- mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa;
- fanga tegishli mavzulardan biri bo'yicha ilmiy maqola chop ettirgan bo'lsa;
- tarixiy jarayonlarni sharxlay bilsa;

**b) 4 baho (70-89 ball) olish uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:**

- fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymas;
- fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushingan bo'lsa;
- fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirisida bajarsa;
- fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa;
- fan bo'yicha konspektini puxta shakllantirgan bo'lsa;
- fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa meyoriy hujjatlarni o'zlashtirgan bo'lsa.

**v) 3 baho (60-69 ball) olish uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:**

- fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa;
- fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilma;
- bayon qilish ravon bo'lmasa;
- fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa;
- fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa.

**g) quyidagi hollarda talabanning bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho (0-59 ball) bilan baholanishi mumkin:**

- fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayorgarlik ko'rilmagan bo'lsa;
- fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa;
- fan bo'yicha matnlarni boshqalardan ko'chirib olganligi sezilib tursa;
- fan bo'yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa;
- fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa;
- fanni bilmasa.

**Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot:**

<b>Muallif:</b>	<b>Z.M.Amirkulova</b> -Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" kafedrasida dotsenti, f.f.b.f.d. (PhD).
<b>E-mail:</b>	zebuniso.amirkulova@gmail.com +998955951977
<b>Tashkilot:</b>	Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" kafedrasida
<b>Taqrizchilar:</b>	<b>S.Bazarov</b> - Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" kafedrasida dotsenti, f.f.b.f.d. (PhD). <b>R.Mustafoqulov</b> – Termiz davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

Mazkur Sillabus universitet o'quv-uslubiy Kengashining 2024-yil "30" 08 dagi 1 - sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

Mazkur Sillabus "Pedagogika va ijtimoiy-gumanitar fanlar" fakultetining 2024-yil "28" 08 dagi 1 -sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan

Mazkur Sillabus "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" kafedrasining 2024-yil "26" 08 dagi 1 -sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

**O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i**

**Z.To'rayev**

**Magistratura bo'limi boshlig'i**

**A.Abdusamatov**

**Kafedra mudiri**

**B.Ismoilov**

**Tuzuvchi**



**Z.Amirkulova**

